


92. 2 sonini ko'paytirish va 2 ga ko'paytirish

Yondosh mavzu:
majburiyatlar.

Perimetr,
2 ga ko'paytirish.




1. Ko'paytirishning o'rın almashtirish qonuniga rioya qilib, masalalarni yeching.
 - a) Har kuni sinfda ikki o'quvchi navbatchilik qiladi. Ular doskani artadilar, sinfni darsga tayyorlaydilar, o'qituvchiga yordamlashadilar. Agar o'qituvchi 15 juft navbatchi tashkil etgan bo'lsa, sinfda necha nafar o'quvchi bor?
 - b) Maktabning har bir sinfida maktab o'quvchilarining huquq va majburiyatları yozilgan 2 ta plakat osib qo'yilgan. Agar maktabda 42 ta sinf xonasi bo'lsa, hammasi bo'lib nechta plakat tayyorlangan?

2. To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 10 cm, eni esa 6 cm.
 $10 + 10 + 6 + 6$ ifoda nimani anglatadi? Bu ifodada ko'p sonli qo'shishni ko'paytirish bilan almashtiring. Qanday ifoda hosil bo'ldi?



To'g'ri to'rtburchakning perimetri



$$P = a \cdot 2 + b \cdot 2$$

$$P = (a + b) \cdot 2$$

3. Daftaringizga tomonlari 4 cm va 3 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Uning perimetri va yuzini toping.

4. Taqqoslang.

$$3 \cdot 1 \square 1 \cdot 5$$

$$2 \cdot 2 \square 2 \cdot 9$$

$$5 \cdot 2 \square 2 \cdot 4$$

$$8 \cdot 1 \square 3 \cdot 5$$


$$7 \cdot 3 \square 3 \cdot 4$$

$$6 \cdot 2 \square 6 \cdot 1$$

92. 2 sonini ko'paytirish va 2 ga ko'paytirish



5. Sxema bo'yicha ifodalar tuzing va ularning qiymatini toping.



6. Bolalar hududni yig'ishtirishda 135 ta shisha qopqog'i yig'ib olishdi. Bu yig'ib olingan qog'oz qutilardan 45 ta ko'p. Bolalar jami qancha shisha qopqog'i va qog'oz qutilar yig'ib olishgan?



7. Sinfdoshingiz bilan musobaqalashing.

$$\begin{array}{ccccccc}
 45 + 31 & \rightarrow & \cdot 2 & \rightarrow & - 43 & \rightarrow & - 100 \\
 37 + 98 & \rightarrow & + 65 & \rightarrow & \cdot 2 & \rightarrow & - 397 \\
 & & & & & & \cdot 2
 \end{array}$$



8. Daftaringizga tomonlari 6 cm va 2 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Uning perimetri va yuzini toping.



9. Amallarni sxema bo'yicha bajaring va daftaringizda jadvalni to'ldiring.

x	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
y										

